

# **MAKTAB VA HAYOT**

**ILMIY-METODIK JURNAL**

**7 / 2019**

**Ushbu sonnda:**

**TA'LIM JARAYONI ISHTIROKCHILARINING TA'LIM  
MUASSASASIGA NISBATAN SUB'EKTIV  
MUNOSABATLARI**

**3 »»**

**DEPRESSIV HOLATLARDA OLIB BORILADIGAN  
PSIXOKORREKSION ISHLARNING O'ZIGA XOSLIGI**

**15 »»**

**TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHINING IJODIY  
KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH – DIZAYNERLIK  
KASBIGA YO'NALTIRISHNING MUHIM BELGISI**

**27 »»**

**ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ  
ОБЩЕТРУДОВЫХ УМЕНИЙ**

**35 »»**





## BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

## TAHRIR HAY'ATI

Amanjol AYAPOV  
Boris BLYAXER  
Baxodir SOBIROV  
Risboy JO'RAYEV  
Sevara ZUPARXODJAYEVA  
Lola MO'MINOVA  
Vahobjon RAJPOV  
Nargiza RAXMONQULOVA  
Sherzod SHERMATOV  
Shavkat SHARIPOV

### Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda terish va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

### Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga  
yo'naltirish va psixologik-pedagogik  
respublika tashxis markazi

«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda  
«MAKTAB VA HAYOT»dan olindi,  
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan  
chiqa boshlagan.

### MANZIL:

100095, Toshkent sh.,  
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.  
Tel: (0371) 246-21-02  
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

## MUNDARIJA

- 2 **O.G'.DAVLATOV.** Axborot xurujlaridan himoyalanişning ayrim pedagogik-psixologik usullari
- 3 **M.A.YULDASHEV, D.SH.TEMIROV.** Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ta'lim muassasasiga nisbatan sub'ektiv munosabatlari
- 6 **P.S.ERGASHEV.** Bolaning "noqulay" savollariga javob berishning psixologik-pedagogik asoslangan usullari
- 8 **N.S.MUSAYEVA.** Imkoniyati cheklangan bolalar muloqot ko'nikmalarini ta'lim jarayonida rivojlantirishning ahamiyati
- 10 **D.R.BABAYEVA.** Bolalar lug'atini boyitish metodlarining mohiyati va mazmuni
- 12 **N.A.ABDUMANNOTOVA.** Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda – o'yin mashg'ulotlari muhim omil sifatida
- 15 **N.A.ASQAROVA, S.SH.RUSTAMOVA.** Depressiv holatlarda olib boriladigan psixokorreksion ishlarning o'ziga xosligi
- 18 **M.MUSAYEVA.** Boshlang'ich sinflarda tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali o'quvchilarning nutqini rivojlantirish
- 19 **N.R.PULATOVA.** Umumta'lim maktablarida innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarish
- 21 **G.T.JUMAYEVA.** O'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish uslubiya-tida o'qituvchining psixologik-pedagogik yondashuvi
- 23 **D.K.UMAROVA, X.S.SAFAROVA.** Umumta'lim maktablarida ingliz tili darslari samaradorligini oshirish yo'llari
- 26 **N.Z.MAMEDOVA.** Multimedia – o'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida
- 27 **D.B.LUXMANOV.** Texnologiya darslarida o'quvchining ijodiy ko'nikmasini rivojlantirish – dizaynerlik kasbiga yo'naltirishning muhim belgisi
- 29 **SH.N.QODIROV.** Sport to'garaklari – umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish omili sifatida
- 30 **N.Q.AXMEDOVA.** Maktab rahbari o'z-o'zini baholashi muhimmi?
- 32 **U.T.BEKMATOVA.** Tabiatshunoslik darslarida "kubik" usulidan foydalanish mexanizmlari
- 33 **H.YE.SULTANOV, U.N.XO'JAMQULOV.** Tasviriy san'at: pedagogik ta'lim klasteri va uning istiqbollari (Chirchiq davlat pedagogika instituti tajribasi)
- 35 **H.YUSUPOVA.** Особенности формирования общетрудовых умений
- 37 **H.K.ЭРМЕТОВА.** Порядок организации дополнительных платных услуг в школе
- 40 **K.З.МАМАТКАРИМОВ.** Применение и использование компьютерной графики в общеобразовательных школах
- 42 **I.M.AБИРАЕВ.** Организация познавательной деятельности учащихся по целостному усвоению темы «квадратные уравнения»





tashqari, umumiy o'rta ta'limning ikkinchi bosqichida o'qitiladigan geografiya, biologiya, fizika va kimyo o'quv fanlarini o'rganishlari uchun zamin tayyorlaydi.

Biz quyida boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida "Kubik" usulidan foydalanish mexanizmlari orqali o'quvchilarning tasavvur va tushunchalarni, atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarni rivojlantirishda xizmat qiladigan metodik tavsiyani taqdim etamiz.

**"Kubik" usuli** odatda ayrim mavzularni o'tishda darsning mustahkamlash bosqichida qo'llaniladi. Usulni amalga oshirish mexanizmidagi quyidagi qoidalar qo'llanishi kerak. 1) Tasvirlang, 2) Taqqoslang, 3) O'xshating, 4) Tahlil qiling, 5) Ishlating, 6) Foydali va zararli tomonlarni aniqlang.

#### **"Kubik" metodini amalga oshirish mexanizmlari.**

Bu usul ko'rilayotgan masalani turli tomondan, qadamma-qadam, osondan qiyinga tomon yo'nalishda tasavvur etish imkoniyatini beradi.

Kubik usulining har bir tomoni muayyan topshiriqni ifodalaydi.

**Tasvirlang:** Ko'rayotgan narsaning rangi, o'lchamlari shaklini tasavvur eting va yozma ravishda ta'riflang.

**Taqqoslang:** U nimaga o'xshaydi, nimadan farq qiladi? (Qiyoslash)

**O'xshating:** Taassurotingizni izohlang? U sizni nima to'g'ri-sida o'ylashga majbur qildi? Xayolingizga nima keldi?

**Tahlil qiling:** Bu nimadan va qanday yasalgan? Qanday qismlardan tuzilgan? Nimalardan tashkil topgan?

**Qo'llang:** Bu nimaga yaraydi? Uni qaerda qo'llash mumkin?

**Foydali va zararli tomonlarni aniqlang:** Bunda ishonchli dalillar va asoslovchi fikrlarni ayting.

Ushbu usuldan foydalanish uchun yuqoridagilar sinf doskasiga yozib qo'yiladi, o'quvchilar javoblarni varaqlarga yozib o'qituvchiga topshiradi. Ushbu usuldan tabiiy fanlarda ko'proq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**4-sinf "Tabiatshunoslik" darsligidagi "Gidrosfera – yerning suv qobig'i" mavzusini o'rganishda "Kubik" usulidan foydalanish metodikasi.**

– **Tasvirlang:** Ta'msiz, hidsiz, rangsiz, shaklsiz suyuqlikdir.

– **Taqqoslang:** Boshqa suyuq moddalarga o'xshash, lekin tarkibi jihatidan tubdan farq qiladi. Suvni suyuq moddalar bilan,

gazsimon moddalar bilan, qattiq moddalar bilan taqqoslash mumkin.

– **O'xshating:** Suv tabiatda barcha suyuq moddalarga o'xshash. Muz ham, bug' ham suv hisoblanadi.

– **Tahlil qiling:** Suv tabiatda uch xil holatda uchraydi. suyuq, gazsimon bug' va qattiq muz.

– **Ishlating:** Suv energiya manbai, tabiatda suvning juda ko'p imkoniyatlari bor. Barcha tiriklik uchun zarur bo'lgan modda. Suv – barcha tirik organizmlar uchun va butun yer sayyorasi uchun zarur unsurlardan biridir.

– **Foydali va zararli tomonlarni aniqlang:** Suvning barcha tirik organizmlar uchun zarurligi, ularga hayot berishi foydali. Suvning tilsiz yov, ko'plab toshqinlarga, tabiiy ofatlarga sababchi bo'lishi zararli tomoni hisoblanadi.

"Kubik" usulini qo'llashda o'ziga xos bo'lgan didaktik qoidalarga amal qilish lozim:

**birinchidan,** o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog'liq;

**ikkinchidan,** bayon qilinadigan materialning harakteriga bog'liq;

**uchinchidan,** ta'lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog'liq;

**to'rtinchidan,** o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq;

**beshinchidan,** o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tay-yorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.

"Kubik" usuli o'qitishning boshqa interfaol metodlari kabi o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

#### **Adabiyotlar**

1. Pedagogik atamalar lug'ati. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti. – T.: 2008 y.

2. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. T.N.Qori Niyoziy nomi-dagi O'zbekiston pedagogika fanlar ilmiy tadqiqot instituti. – T.: 2016 y.

## **TASVIRIY SAN'AT: PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI VA UNING ISTIQBOLLARI (CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TAJRIBASI)**

**H.Ye.Sultanov, U.N.Xo'jamqulov,  
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsentlari**

В данной статье рассматривается вопрос педагогического кластера и его перспективы.

**Ключевые слова и понятия:** педагогический кластер, образование, интеграция, инновация, перспектива, школа-лаборатория, обмен опытом, творчество.

This article addresses the issue of the pedagogical cluster and its prospects.

**Key words and concepts:** pedagogical cluster, education, integration, innovation, perspective, school-laboratory, exchange of experience, creativity.

XX asr boshlaridayoq buyuk ma'rifatparvar bobolarimizdan biri Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiyaning "...biz uchun yo hayot, yo mamot..." masalasi ekanligini qat'iy ravishda kun tartibiga qo'yan edi. Chunki, ta'lim, ilm-fan har qanday jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omil bo'lib hisoblanadi. Ushbu haqiqatni bizning yurtimiz misolida ham komil ishonch bilan ta'kidlash mumkin. O'tmishda yashab ijod etgan va dunyo

sivilizatsiyasiga o'zlarining bemisl hissalarini qo'shgan ajdodlarimiz merosi fikrimizni to'liq tasdiqlaydi.

Hozirgi paytda ham ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, yetuk mutaxassislar tayyorlashning optimal yo'llarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Zamonaviy, nostandart fikrlaydigan, ma'naiy yetuk va jismonan barkamol yoshlarni tarbiyalash milliy ta'lim tizimining ustuvor





maqsadlaridan hisoblanadi. 2019 yil 19 may kuni muhtaram yurtboshimizning O'zbekiston Milliy Universitetida ilm-fan namoyandalari bilan uchrashib, oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan pedagogik ta'limning yangi modelini joriy etish bo'yicha muhim ko'rsatmalar berganining guvohi bo'ldik.

Respublikamizda yoshlarni yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, zamonaviy ruhda tarbiyalash, ta'lim sohasini isloh qilish, tizimni tubdan takomillashtirish, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga hozirgi kunning dolzarb va ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Yurtimizda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash oliy ta'lim tizimining asosiy vazifasi sifatida belgilab qo'yildi. Xalqaro amaliyotda sinalgan va iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmoqlarida samarali model sifatida e'tirof etilayotgan klaster tizimi xuddi shunday ijodiy o'zlashtirilayotgan tajribalar sirasiga kiradi. Klaster modeli bugungi kunda ta'lim tizimiga ham shiddat bilan kirib kelmoqda.

Jamiyat barqaror rivojlanishidagi pedagogik ta'limning ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash uchun uzluksiz pedagogik ta'limni ham klaster rivojlanish tizimiga o'tkazish zarurati paydo bo'ldi. Hozirgi paytda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzilish, ularning integratsiyalashmaganligi jiddiy muammo sifatida ko'zga tashlanmoqda. Bu dolzarb va og'riqli muammoning yechimini topish uchun erishilgan ilmiy, amaliy va innovatsion natijalarni talabalar auditoriyasiga olib kirish zarurati paydo bo'ldi. Chirchiq davlat pedagogika instituti tomonidan ushbu masalani ijobiy hal qilish va ilmiy-nazariy jihatdan asoslash asosiy tadqiqot yo'nalishi sifatida belgilandi. Tadqiqotchilar tomonidan ushbu ilmiy-pedagogik loyihaning maqsad va vazifalari, amalga oshirish mexanizmlari, ustuvor tamoyillari ishlab chiqilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda klaster tushunchasi borasida bildirilgan fikrlar dan kelib chiqib, pedagogik ta'lim klasteri tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: **pedagogik ta'lim klasteri** – muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub'ektlarning, texnologiyalarning va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizmdir. Ta'lim majmuasining asosiy mahsuloti raqobatbardosh kadrlar va ta'lim xizmatlari hisoblanadi. Ta'lim klasterining pirovard maqsadi ta'lim va ilmiy jarayonlarni takomillashtirishga karatilgan bo'ladi. Bu esa tizimda boshqaruv, tuzilma va sifat bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar bilan birga mutaxassislarni tayyorlash tizimida ayrim tashkiliy va tarkibiy o'zgarishlarni ham talab qiladi. Ayni paytda, bu boradagi ishlarning barcha bosqichlarida yangi shakllar va usullarni izlash, ta'limning barcha turlarini maqsadning umumiyliigi va manfaatlarining xususiyliigi bo'yicha aloqadorligini kuchaytirish, ular o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash masalasi yotadi.

Toshkent viloyati hududida tasviriy san'at o'qitish metodikasini rivojlantirish, yoshlarni bu sohaga qiziqitirish uchun klasterli tuzilmalarni shakllantirish, qo'shimcha kasblarni o'rgatish orqali tadbirkorlikni yo'lga qo'yish, qo'shimcha daromad topish, institutga investitsiya olib kirish, hamkorlarimiz bo'lgan maktab, xalq ta'limi bo'limlari, shuningdek, institut va kafedralar o'rtasidagi vakolatlarni taqsimlash, ta'lim muassasalari bilan axborot ayirboshlashni jadallashtirish va yangiliklarni targ'ib etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion faolligini hamda institutning innovatsion jozibadorligini yuksaltirish kabi yangi imkoniyatlarni yaratish tasviriy san'at ta'limini klasterlashtirishning maqsadlari hisoblanadi. To'g'ri ma'nodagi tadbirkorlikni o'quv jarayoniga kiritish, qo'shimcha daromad

olish, yangi bozorlarga chiqish, innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha xarajatlarni qisqartirish, talabalarning amaliyot malakasini oshirish, ularni kichik innovatsion faoliyatga jalb etish va pirovardida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tasviriy san'at ta'limini klasterlashtirishning vazifalari hisoblanadi. Tasviriy san'at ta'limini klasterlashtirishda har bir klaster ishtirokchisi bo'lgan jamoa o'z maqsadini ko'zlagan holda nafaqat o'z faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi, balki tadbirkorlik infratuzilmasini shakllantirishga ko'maklashgan holda ushbu yo'nalish bo'yicha faoliyat yurituvchi turli xildagi boshqa jamoalarning iqtisodiy o'sishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, klaster tizimida ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy-uslubiy ishlanmalarni yaratish, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar hamda mutaxassislar mehnatini ko'proq rag'batlantirish, yangi ilmiy va ijodiy asarlar yaratish, ta'limda va ijodiy jarayonda yangi ixtirolar qilyish uchun sharoit yaratiladi. Bizning nazarimizda, klasterlashtirishga institut innovatsion faoliyatini tezlashtirish asosida raqobatbardoshlikni oshiruvchi, raqobatning kuchli ta'siriga qarshi turish jarayonidagi mutaxassislik talablariga to'la javob beruvchi tuzilma sifatida baho beriladi.

Klaster natijasida yuqori raqobatlashuv ko'rsatkichlariga ega bo'lgan tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi o'z yutuqlari orqali atrofdagi ta'lim sub'ektlariga, ya'ni iste'molchilar (maktab, bog'cha), bo'lajak tinglovchi yetkazib beruvchilar (maktab, maxsus maktab) va raqobatchilar (turdosh OTM)ga ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Atrofdagilarning kuchayishi esa institut jamoasi raqobatbardoshlik sifatlarining yanada ko'tarilishiga olib keladi. Bir so'z bilan aytganda, bizning faoliyatimiz keng qamrovli tarmoq klasteri ko'rinishini kasb etmoqda: birinchidan, maktab (ikki ko'rinishda – yetkazib beruvchi va iste'molchi – **ta'kid bizniki U.X., H.S.**) – institut – turdosh OTM ko'rinishida, ikkinchidan, auditoriya – to'garak – ko'rgazma (tanlov) – amaliyot ko'rinishida.

Tadqiqotlarda uzviylik va uzluksizlik pedagogik ta'lim klasterining asosiy tamoyillari sifatida qayd qilingan. Ayni paytda institutning tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi tomonidan ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'limdan to Badiiy akademiyagacha bo'lgan hamkorlik aloqalari o'rnatilib, hamkorlik doirasida klaster ishtirokchilari bilan ta'limni tashkil etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ijodiyot hamda qo'shimcha kasb-hunar ta'limi sohalarini rivojlantirish bo'yicha bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Chirchiq shahar 3-MTM da kichik yoshdagi bolalar uchun talabalarimiz tomonidan yaratilgan rangli rasmlardan iborat ertak, hikoya kitoblari taqdimoti o'tkazildi. Ushbu MTM da bo'lib o'tgan viloyat miqyosidagi seminar talabalar o'z ijod namunalarining ko'rgazmasini tashkil qilib, tarbiyalanuvchilar ko'z o'ngida "master klass"lar uyushtirildi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri faoliyati doirasida tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi tomonidan Chirchiq shahridagi 3-bolalar musiqa va san'at maktabi qoshida "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchasi tashkil qilindi. Mazkur tajriba maydonchasida ta'lim yo'nalishining "Ijodkor" loyihasi tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda. Mazkur loyihaning maqsadi tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirishning innovatsion shakllarini izlab topish va yoshlarda san'atga, jumladan, tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish va iqtidorli yoshlarning salohiyatini ko'tarishga qaratilgan.

Umuman, shu o'rinda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini amaliyotga joriy etishning oqilona shakli bo'lgan "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchalari borasida ham qisqacha to'xtalib o'tsak, bizningcha, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chirchiq davlat pedagogika institutining innovatsion loyiha-





si bo'lgan "Maktab-laboratoriya"larini ta'lim innovatsiyasi sifatida tushunish to'g'ri bo'ladi. Chunki unda tizim bilan bog'liq bo'lgan muammolarni rivojlantirish tamoyiliga asosan hal qilishga qaratilgan yangicha shakl va metodlar, yondashuv va texnologik jarayonlarni tizimli qo'llash orqali sifat o'zgarishlariga erishish nazarda tutiladi.

**"Maktab-laboratoriya" – pedagogik ta'lim innovatsion klasterining sub'ekti bo'lib, ta'lim turlarining ilmiy, uslubiy va ta'limiy faoliyatini rivojlantirish maqsadiga qaratilgan innovatsion loyihalar bo'yicha tajriba-sinov maydonchalaridir.** Demak, "Maktab-laboratoriya" tajriba maydonchalarini ta'lim turlari hamkorligining innovatsion shakli, deysish mumkin. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri bir guruh ta'lim sub'ektlarining innovatsion mahsulotni yaratishga va uning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradigan yangi tizim bo'lib, u sohaning milliy va mintaqaviy darajada rivojlanishi uchun kuchli rag'bat beradi. Shunga ko'ra klaster yondashuvi fan va ta'limni, pirovardida, amaliyotda jamiyatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni izlash va amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Klaster doirasida bir nechta sub'ektlarni o'zaro integratsiyalash jarayoni murakkab, ko'ptarmoqli ilmiy-amaliy jarayondir. O'zaro bog'liq bir nechta faoliyat turlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish aniq hisob-kitoblarni va ilmiy yechimlarni, natijasi kafolatlangan loyihalarni talab qiladi va shundagina klaster sub'ektlarining ishonchini qozonadi. Shunday ekan, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri doirasidagi ilmiy-pedagogik loyihalarni amalga sinab ko'rish muayyan tajriba-maydonchalari bo'lishini talab etadi. "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchalari bu borada asosiy bo'g'inlardan biri bo'lib xizmat qiladi va **pedagogik inkubator** vazifasini bajaradi.

Institutimiz tomonidan tashkil qilingan "Maktab-laboratoriya"larida ta'lim, fan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash, yangi loyihalarni tajriba-sinovdan o'tkazish, maktab o'qituvchilariga ilmiy va uslubiy maslahatlar berish, ta'lim turlari o'rnatidagi ilmiy, uslubiy va ta'lim vositalarini rivojlantirish bilan bog'liq majmuaviy xarakterdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

"Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchalari faoliyatining dastlabki samarasi sifatida joriy yilning 13 may kuni institutda "Olam va odam ranglar in'ikosida" nomli yosh rassomlar tanlovi tashkil qilindi. Mazkur tanlov muhtaram yurt-

boshimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning institutdagi ijrosi sifatida ham e'tirof etildi. Tanlovda institutlarining talabalari bilan bir qatorda maktab va kasb-hunar kollejlarning o'quvchilarining ham munosib ishtirok etishi quvonarli holdir. Tanlovning yana bir muhim jihati shundaki, tanlovni tashkil etish va boshqarishda "Ustoz – shogirdga, shogird – shogirdga ustoz" tamoyiliga amal qilindi va bu tizimning muntazamlik kasb etishi tasviriy san'at ta'limini kaskad usulida rivojlantirishga yordam beradi.

Umuman, Chirchiq davlat pedagogika instituti tomonidan olib borilayotgan pedagogik ta'lim innovatsion klasteri loyihasi ta'lim, fan va ishlab chiqarishni yaxlit tizim sifatida qamrab oladigan ta'lim innovatsiyasidir. Uning birlashtiruvchi kuchi va g'oyasi pedagog ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini o'zida to'la aks ettirishi bilangina emas, balki amaliy ahamiyati bilan ham e'tirofga loyiq.

#### Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M., 2019 yil 19 mayda o'tkazilgan videoselektordagi nutqi, – O'zbekiston milliy axborot agentligi sayti, 19.05.2019.

2. Mirziyoyev Sh.M., Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur. 2019 yil 23 avgustda o'tkazilgan videoselektordagi nutqi, – O'zbekiston milliy axborot agentligi sayti, 23.08.2019.

3. Мухамедов Ф.И, Хўжамкулов У. Мактаб-лаборатория: таъриф ва тавсиф. "Социальное, экономическое и культурное сотрудничество Таджикистана и Узбекистана: история и современность" международной научно-практической конференции, ХГУ им. академика Бобожона Гафурова, Ху-жанд, 2019, 21-22 июня. С. 826-832

4. Hodjamkulov U. Pedagogical cluster – a new innovation aspect, Теория и практика современной науки (эл. журнал), 2019, №2(44)

5. Беспалова Л. Что такое кластер? URL: <http://siok.right-side.ru/siok/2009-12-01-06-24-41>. Загл. с экрана.

6. Ягодина Н.В. К вопросам теории кластера // Социально-экономические системы: современное видение и подходы. Материалы четвертой международной научно-практической конференции. – Омск: Изд-во «СИБИТ», 2009.

## ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ОБЩЕТРУДОВЫХ УМЕНИЙ

**Н.Юсупова,**  
преподаватель Ташкентского государственного университета имени Низами

Maqolada yordamchi maktab o'quvchilarida umummehnat malakalarini shakllantirish masalalari yoritilgan

**Kalit so'zlar va tushunchalar:** yordamchi maktab, mehnat faoliyati, mehnat ko'nikmalari, umummehnat malakalari.

Трудовая деятельность является необходимым условием формирования интеллектуальных и физических способностей человека. Для успешного осуществления трудовой деятельности ребенок должен понять задание и представить себе результат труда, конструкцию будущего изделия, его форму, размеры, а также материалы, из которых оно будет выполнено, способ крепления, вспомнить есть ли опыт выполнения подобных заданий. Мысленное построение того объекта, который предстоит изготовить, является характерной особенностью ориентировочного этапа работы.

The article discusses how to develop general labor skills among auxiliary students

**Keywords and concepts:** auxiliary school, work experience, work skills, work skills.

Рассмотрим, чем отличается первый этап решения трудовой задачи у учащихся массовой и вспомогательной школ. Прежде всего, необходимо отметить, что наблюдения показывают значительную разницу во времени, которое затрагивают учащиеся обоих типов школ на предварительную ориентировку в задании. У учащихся массовой школы в новой для них трудовой задаче этап ориентировки более продолжителен, чем у умственно отсталых в тех же условиях: организация коррекционного обучения позволяет существенно уменьшить недостатки трудовой деятельности учащихся вспомогательной школы. При отсутствии или



# HURMATLI HAMKASBLAR!

# **MAKTAB VA HAYOT**

## JURNALIGA 2020 YIL UCHUN OBUNA BOSHLANDI

**2019 yilda "MAKTAB VA HAYOT" jurnalida (ilovasi bilan) turli ilmiy-metodik, didaktik, me'yoriy hamda axborot materiallari quyidagi ruknlarda nashr etiladi:**

- Kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasi va amaliyoti
- Ta'limda psixologik xizmat
- Amaliy psixologiya
- Oila psixologiyasi
- Defektologiya va tibbiy xizmat
- Inklyuziv ta'lim
- Axborot texnologiyalari
- Texnologiya
- Sog'lom avlod uchun
- Ota-onalar maktabi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

## Obuna indeksi: 1019

Tahririyat telefonlari:

tel / faks: 8 (0371) 246-21-02

Web site: <http://www.tashxis.uz>

E-mail: [maktabvahayot@sarkor.uz](mailto:maktabvahayot@sarkor.uz)